

Kuzgi ta'til munosabati bilan bolalar uchun chegirma

2025 24 Oktabr

Oilaviy sayohatingizni yanada yoqimli va foydali o'tkazing! O'zbekiston shaharlaridan Istanbul, Dubay, Bangkok, Kuala-Lumpur, Boku yo'nalishlari va orqaga amalga oshiriladigan aviaqatnovlarda iqtisodiy klassning barcha e'lon qilingan individual tariflaridan bolalar uchun 90% chegirma taqdim etiladi!

Chegirma qo'llanish shartlari:

1. Sotuv davri: 2025-yil 25-oktabrdan 2-noyabrgacha;
2. Parvoz davri: 2025-yil 1-noyabrdan 9-noyabrgacha;
3. Chegirma miqdori:

a. Kattalar uchun — taqdim etilmaydi;

b. 2 yoshdan 12 yoshgacha bo'lgan hamroh bolalar va salonda joy egallagan 2 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun umumiy chegirma (bolalar chegirmasi bilan birgalikda) kattalar tarifidan 90% ni tashkil etadi (chegirma kodi — PTT);

c. Salonda joy egallamaydigan 2 yoshgacha bo'lgan bolalarga chegirma tatbiq etilmaydi.

Chegirma tizimda fayllangan bo'lib, tarif hisobida avtomatik tarzda qo'llanadi. Bunda PTC/Discount Code maydoniga PTT kodi kiritilishi zarur (CHD uchun).

4. Aviachiptani qaytarish / qayta bron qilish / qayta rasmiylashtirish holatlarida chegirma qaytarish, qayta rasmiylashtirish yoki NO-SHOW yig'imlariga tatbiq etilmaydi va belgilangan tartibda (25% chegirma bilan) olinadi. Qisman foydalanilgan chipta uchun qaytariladigan summa standart 25% bolalar chegirmasi hisobga olingan holda aniqlanadi.
5. Aksiya muddati tugaganidan so'ng chegirma bilan rasmiylashtirilgan, ammo foydalanilmagan aviachiptalarni qayta rasmiylashtirishda yangi sana chegirma amal qiladigan davrga to'g'ri kelmasa, tarifga 25% standart bolalar chegirmasi

bilan qayta hisob-kitob qilinadi. Istisno holatlar: to'plangan ballar evaziga Z klassga ko'tarilish yoki Change Name Policy doirasidagi ma'lumot o'zgarishlari.

6. 2025-yil 1–9-noyabr oralig'idagi aviaqatnovlarga, aksiya boshlanishidan oldin rasmiylashtirilgan chiptalarda, 25% standart bolalar chegirmasi qo'llanadi.
7. 2025-yil 10-noyabrdan keyin amalga oshiriladigan aviaqatnovlarga, aksiya doirasida rasmiylashtirilgan qisman foydalanilgan chiptalarda chegirma ikkinchi uchastkaga (shu jumladan OPEN DATE segmentlarga) tatbiq etilmaydi. Agar yangi sana aksiya davriga to'g'ri kelmasa, chipta 25% standart bolalar chegirmasi bilan qayta rasmiylashtiriladi.
8. 2025-yil 1-oktabrda (15% chegirma bilan) rasmiylashtirilgan, ammo aksiya davriga to'g'ri keladigan aviaqatnovlarga qayta rasmiylashtirishda 25% standart bolalar chegirmasi qo'llanadi.
9. Chegirma faqat aksiya o'tkaziladigan davrga to'g'ri keladigan tashish uchastkasi uchun qo'llaniladi;
10. Chegirma bilan sotuv aviakompaniya rasmiy sayti orqali (UZS/USD/RUB), O'zbekiston hududida "Uzbekistan Airways Sales" filiali va uning agentlari orqali, chet elda faqat HY bilan to'g'ridan-to'g'ri agentlik shartnomasi (250210...) asosida ishlaydigan agentlar orqali, yo'lovchining fuqaroligidan qat'i nazar. Chegirma BSP, TKP va ARC agentlariga tatbiq etilmaydi.
11. Chegirmalarni birlashtirish taqiqlanadi. Bronlashtirish kattalar bilan bitta PNRda amalga oshiriladi.
12. Chegirma O'zbekiston shaharlaridan Istanbul, Dubay, Bangkok, Kuala-Lumpur, Boku yo'nalishlariga (va ortga) amalga oshiriladigan barcha e'lon qilingan individual iqtisodiy sinf tariflariga (OW/RT) tatbiq etiladi. Chegirma SPA, Code-Share, tranzit tariflari (RBD J, H, E, N, Q, W), guruhli bronlar yoki blok joylashuvlar uchun amal qilmaydi.
13. Yo'nalishlar kombinatsiyasi yoki Code-Share tariflari bilan birlashtirilgan marshrutlarda bolalar chegirmasini to'g'ri qo'llash uchun tashuvlar alohida aviachiptalar orqali rasmiylashtiriladi.
14. Chegirma yolg'iz (hamrohsiz) sayohat qiladigan bolalarga tatbiq etilmaydi.

Eslatma: Yo'lovchi va yuk tashish tarifiga qo'shimcha ravishda turli soliqlar, yig'imlar va qo'shimcha to'lovlar belgilanadi, ularga 90% gacha chegirma qo'llanilmaydi.

Farzandlaringizga Uzbekistan Airways bilan yorqin sayohat taassurotlarini tuhfa eting!

